

*TDIU “Buxgalteriya hisobi”*

*kafedra PhD, katta o‘qituvchisi,*

***Eshonqulov Azamat Abdirachimovich***

*Toshkent kimyo xalqaro universiteti*

*mustaqil izlanuvchisi*

***Shahzod Sayfulla Behzod o'g'li***

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, shuningdek ishlab chiqarish korxonalarining nufuzini oshirish uchun zamonaviy asosiy vositalar bilan ta’minlanishi dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish korxonasining eng katta xarajatlaridan biri o‘zining balansida binoga ega bo‘lishi hamda sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun uskunalar bilan samaradorligini oshirishga erishiladi. Ishlab chiqarish korxonalarining nufuzini oshirishda eksportning o‘rni katta. Eksport qiluvchi korxonalar ishlab chiqargan mahsulotining sifati hamda xaridorgirligi bo‘yicha ish jarayonini amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Buning asosiy sabablaridan biri ishlab chiqarish korxonasi o‘zining zamonaviy asosiy vositalari bilan ta’minlanishi muhim hisoblanadi. O‘zbekistonda moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etish va qo‘llashga qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu korporativ boshqaruv samaradorligi, investitsion jozibadorlik, raqobatbardoshlikni oshirish va biznesning ochiq-oydinligini ta’minlashning eng muhim omillaridan biridir. Respublikamizda amal qiladigan buxgalteriya hisobi milliy standartlariga (BHMS) asoslanib tuzilgan moliyaviy hisobotni qo‘llash xorijiy investorlar O‘zbekistondagi kompaniyalar moliya-ishlab chiqarish faoliyatining barcha jihatlarini yetarli darajada tushunib yetishini to‘liq kafolatlay olmaydi. MHXSni Iqtisodiyot va moliya vazirligi timsolidagi regulyator bosqichma-bosqich va uzoqni ko‘zlab joriy etmoqda.

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

Birinchi navbatda MHXSni ommaviy qiziqish uyg'otuvchi sub'ektlar joriy etadilar va qo'llaydilar. Moliya-kredit tashkilotlari va aktsiyadorlik jamiyatlari qonunchilikka binoan moliyaviy hisobotni MHXSga muvofiq shakllantirishlari shart. Ularda nafaqat MHXS nazariyasiga, balki ularni amalda qo'llash ko'nikmasiga ega mutaxassislar talab mavjud. Bunday mutaxassislar uchun kasbga oid ulkan istiqbollari ochilmoqda, raqobatbardoshligi oshmoqda.

BHMS va MHXS talablariga muvofiq asosiy vositalar hisobini yuritishda uchraydigan asosiy farqlarni ko'rib chiqamiz. Mulk, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqlari asosida xo'jalik yurituvchi sub'ektga tegishli bo'lgan Asosiy vositalar hisobini yuritish 5-son BHMS «Asosiy vositalar» (AV tomonidan 20.01.2004 yilda 1299-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) bilan tartibga solinadi. Shuningdek asosiy vositalarni qayta baholash qoidalari amal qiladi (Asosiy vositalar tomonidan 4.12.2002 yilda 1192-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Nizom). Xalqaro amaliyotda Asosiy vositalar hisobini yuritish uchun BHXS (IAS) 16 «Asosiy vositalar» qo'llanadi. Boshqa MHXS ta'sirini ham inobatga olish zarur, ularga quyidagilar kiradi:

№	BHXS/MHXSlar	Nomlanishi
1	BHMS (IAS) 16	«Asosiy vositalar»
2	BHMS (IAS) 20	«Davlat subsidiyalari hisobi va davlat ko'magi to'g'risidagi axborotni ochib berish»
3	BHMS (IAS) 21	«Valyuta kurslari o'zgarishining ta'siri»
4	BHMS (IAS) 23	«Qarzga doir xarajatlar»
5	BHMS (IAS) 36	«Aktivlarni arzonlashtirish»
6	BHMS (IAS) 40	«Investitsion ko'chmas mulk»
7	BHMS (IAS) 41	«Qishloq ho'jaligi»
8	MHXS (IFRS) 5	«Sotish uchun mo'ljallangan oborotdan tashqari aktivlar va to'xtatilgan faoliyat»
9	MHXS (IFRS) 13	«Haqqoniy qiymatni baholash»
10	IFRIC 1	«Asosiy vositalarni demontaj qilish va tugatish, atrof

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

		muhitni tiklash majburiyatlari va boshqa shunga o'xshash majburiyatlardagi o'zgarishlar»
--	--	--

Ushbu ta'sir yuqorida ko'rsatilgan standartlarning normalari bir qator holatlarda MHXS 16 ga nisbatan ustuvorlikka egaligida aks etishi mumkin. Xalqaro standartlarda investitsion mulk – mulkda yoki moliyaviy ijara sharti bilan egalikda bo'lgan hamda operatsion ijaradan yoki kapital ko'payishidan yoxud birgalikda ikkalasidan daromad olish uchun mo'ljallangan aktivlar (ko'chmas mulk va yer) singari uzoq muddatli aktivlarning maxsus toifalari ajratilgan. Bunday aktivning alohida toifaga ajratilishiga ular boshqa aktivlardan mustaqil ravishda pul oqimlarini salmoqli darajada generatsiyalashi sababchi bo'lgan. Quyidagilar ushbu toifaga kirishi mumkin: uzoq muddatli istiqbolda kapitalni ko'paytirish uchun mo'ljallangan yer; maqsadi belgilanmagan yer; operativ ijaraga berilgan yoki shunga mo'ljallangan binolar; kelgusida operativ ijaraga berish uchun qurilayotgan (rekonstruktsiya qilinayotgan) ko'chmas mulk. Moliyaviy ijara shartnomasiga ko'ra ijaraga berilgan yoki keyinchalik sotishga mo'ljallangan, shuningdek buyurtmachining topshirig'iga ko'ra qurilish pudrati doirasida qurilayotgan ko'chmas mulk investitsion mulkning ushbu toifasi hisoblanmaydi va alohida standartlar bilan boshqariladi.

Amaliyotda qiziqarli va yetarlicha murakkab holatlar uchraydi. Misol uchun, binoning bir qismidan operatsion ijaraga berish uchun, boshqa qismidan esa – ishlab chiqarish yoki ofis uchun o'z maqsadlarida foydalanishni olaylik. Yoki mulkdor qo'shimcha salmoqli xizmatlar ko'rsatadi. Masalan, mehmonxona egasi uni boshqaruvga beradi, bunday shartnomalar shartlari turlicha bo'lishi mumkin.

Konsolidatsiyalangan hisobotni tayyorlash xususiyatlari asosiy vositalar hisobini yuritish amaliyotidagi boshqa qiziqarli holatlarga kiradi. Aytaylik, korxonada mulkida bino bor, uni shu'ba firmasiga yoki bosh kompaniyaga (muassisga) operatsion ijaraga beradi. Konsolidatsiyalangan hisobotda butun kompaniya guruhi pozitsiyasidan uni «egalikdagi ko'chmas mulk» sifatida ko'rsatishimiz kerak. Individual moliyaviy hisobotda esa uni «investitsion mulk» sifatida aks ettirishimiz

lozim. Bunday hollarda auditor yoki buxgalterning professional mulohazasidan foydalanish darkor. Hozircha u mamlakatimiz moliyaviy hisob amaliyotida odatiy tus olmadi, aslida butun jahonda MHXSda ko‘p hollarda asosli ravishda qo‘llanilib keladi. Aktivlar, shu jumladan asosiy vositalar – mulk ob’ektlari emas, mohiyatan olganda esa – korxonaga muayyan usulda daromad keltiradigan resursni xarid qilishga yo‘naltirilgan korxonalar xarajatlari. Shu sababli professional mulohazani qo‘llash va resurslarni xarid qilish xarajatlarini yoki joriy davr xarajatlari sifatida, yoxud aktivlar sifatida baholash zarur.

**Adabiyotlar ro‘yxati.**

- 1.O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni. <https://lex.uz/acts/2931253>.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining 5-sonli “Asosiy vositalar” BHMS Buxgalteriya hisobining milliy standarti. <https://www.mf.uz/>.
- 3.Buxgalteriya hisobotning xalqaro standartlari BHXS (IAS) 16-sonli “Asosiy vositalar”.
4. Buxgalteriya hisobotning xalqaro standartlari BHXS (IAS) 36-sonli “Aktivlarning qadrsizlanishi”.
- 5.Kurbanov Z.N. Nazarov A.K. Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobining dolzarb masalalari. *Ekonomika i sotsium*. 2021 yil 6-1 (85) son, 752-764 b.